



Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti

Biologiya kafedrası

O'simliklar sistematikasi fanidan

KURS İSHİ

MAVZU: Sho'radoshlar oilasi – Chenopodiaceae.

Bajaruvchi: Xidirboeva K.

Qabullovchi: Saitova A.

NUKUS – 2014 y.

Sho'radoshlar oilasi – Chenopodiaceae.

REJA:

I.Kirish.

II.Asosiy qism.

a) Sho'radoshlar oilasi haqida umumiy ma'lumot. S.M. Mustafaev: 385, 386.

b) Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklar. U.P. Pratorov: 221, 333, 337.

c) Sho'radoshlar oilasi qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. U.P. Pratorov: 337.

III.Xulosa.

IV.Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH.

Sho'radoshlar oilasiga deyarli hamma qit'alarining sahro va cho'llarida, qumlarda va sho'rtob yerlarda o'sadigan 100 dan ortiq turkumga mansub, 1500 turga oid daraxtlar, butalar, ko'p yillik, ikki yillik va bir yillik o'tlar kiradi. Bularning ko'pchiligi cho'llarda o'sadi.

Bu o'simliklar ko'pincha etdor sersuv bo'ladi. Barglari oddiy, yonbargsiz, ketma-ket yoki qarama-qarshi o'rnashgan. Bargi juda kichrayib ketgan yoki butunlay yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin. Gullar mayda, yashil yoki rangsiz, to'g'ri yoki qiyshiq, ikki jinsli, bazan ayrim jinsli, boshqosimon yoki shingil simon to'kilga o'rnashgan. Tugunchasi bir uyli va bir urug' kurtakli. Mevasi asosan yong'oqcha.

Sho'radoshlarning keng tarqalgan vakillaridan biri oddiy lavlagidir.

Oddiy lavlagi-lavlagi turkumiga mansub ikki yillik o'simlik. U urug'dan chiqqan birinchi yili uzun bandli yirik barglardan tashkil topgan va oziq moddalarga boy, yug'onlashgan ildiz (ildiz meva) hosil qiladi. Ikkinchi yili unda mayda bargli, biroz uzun, sershoh, uchi to'pgullar bilan tugovchi poya vujudga keladi. U moy oyida gullaydi, gullari mayda, shohlari uchidagi barg qo'ltig'ida joylashgan topgullarda o'rnashgan. Gulqo'rg'oni oddiy, besh bargchali, changchilari beshta, gulqo'rg'on bargchalari qarshisida joylashgan. Urug'chisi uchta mevabargning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Tugunchasi bir uyli. Lavlagining mevasi sentabrda pishadi. Uning mevasi gulqo'rg'on bargchalari bilan qo'shib o'sgan yong'oqchadir.

Sho'radoshlarga mansub ismaloq turkumining O'zbekistonda ikki turi o'sadi. Ulardan biri rezavor ismaloq bo'lib u zirovor o'simliklar qatorida ekiladi, poya va barglari ovqatga ishlatiladi. Ikkinchisi Turkiston ismaloq'i.

Bu oilaga mansub 8 ta tur Respublika Qizil kitobiga kiritilgan.

Sho'radoshlar oilasi haqida umumiy ma'lumot.

Bu oilaga deyarli hamma qit'alarining sahro va cho'llarida, qumlarda va sho'rtob yerlarda o'sadigan 100 dan ortiq turkumga mansub, 1500 turga oid daraxtlar, butalar, ko'p yillik, ikki yillik va bir yillik o'tlar kiradi. Bularning ko'pchiligi cho'llarda o'sadi.

Bu o'simliklar ko'pincha etdor – sersuv bo'ladi. Barglari oddiy, yonbargsiz, ketma-ket

yoki qarama-qarshi o'rnashgan. Bargi juda kichrayib ketgan yoki butunlay yo'qolib ketganlari ham bor. Gullari mayda, yashil yoki rangsiz, to'g'ri yoki qiyshiq, ikki jinsli, ba'zan ayrim jinsli, boshqosimon yoki shingilsimon to'pgulda o'rnashgan. Gulqo'rg'oni oddiy, kosachasimon, 5 ta yashil yoki rangsiz pardasimon bargchalardan tashkil topgan yoki gulqo'rg'on butunlay yo'qolib ketgan. Changchilari 2 – 5 ta. Urug'chisi 2 – 5 mewabargdan iborat. Mevasi asosan yong'oqcha.


Sho'radoshlarning keng tarqalgan vakillaridan biri oddiy lavlagidir. Oddiy lavlagi lavlagi turkumiga mansub ikki yillik o'simlik. U urug'dan chiqqan birinchi yili uzun bandli yirik barglar va oziq moddalarga boy, yo'g'onlashgan ildiz (ildizmeva) hosil qiladi. Ikkinchi yili unda mayda bargli, sershox, uchi to'pgullar bilan tugovchi poya vujudga keladi. U may oyida gullaydi. Gullari mayda. Gulqo'rg'oni oddiy, gulkosachasimon, changchilari 5 ta. Urug'chisi 3 ta meva bargning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Lavlagining mevasi – sentabrda pishadi. Mevasi yong'oqcha.

Sho'radoshlarga mansub **ismaloq** turkumining O'zbekistonda 2 turi o'sadi. Ulardan biri rezavor ismaloq bo'lib, u ziravor o'simliklar qatorida ekiladi; poya va barglari ovqatga ishlatiladi. Ikkinchisi Turkiston ismalog'i. U bir yillik, ikki uyli begona o't.

Qumli cho'llarda **saksovul** turkumiga oid **oq** va **qora** saksovul o'sadi. Bularning ikkalasi ham uncha yirik boimagan daraxtlardir. Barglari juda mayda. Saksovullar martning oxiri – aprelning boshlarida o'sa boshlaydi va gullaydi. Sentabrning ikkinchi yarmidan boshlab saksovullar mevalaydi. 5 ta gulqo'rg'on bargchalardan qanotcha o'sib chiqadi.

Saksovul barglarining deyarli yo'qolib ketishi va bir yillik novdalardan bir qismining to'kilishi uning issiq va quruq cho'l sharoitida yashashga moslashganligining belgisidir.

Saksovulning poyasi qimmatbaho yoqilg'i, bir yillik novdalari va mevalari chorva mollari uchun ozuqa hisoblanadi.



1-rasm: Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklar:

1-baliqko'z: 2-saksovul:

Bundan tashqari, saksovullar ko'chma qumlarni mustahkamlashda keng qo'llaniladi. Sho'radoshlarning ko'pchilikturlari gipsli va sho'rli cho'l o'tloqlaridagi asosiy yem-xashak o'simliklari qatoriga kiradi. Masalan, *teresken, ebalak, sag'an, izen, baliqko'z, sho'rak, quyonjun, donasho'r* turkumlariga oid o'simliklarni tuyalar va qorako'l qo'ylari kuzda ishtaha bilan yeydi. Jzen, chitfgon va keyreukni madaniy yem-xashak o'simtiklari qatoriga kiritish ustida O'zbekiston Fanlar akademiyasining «Botanika» ilmiy-ishlab chiqarish markazida ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda. Cherkezning bargi va mevasidan olinadigan dori tibbiyotda qon bosimini pasaytirish uchun ishlatiladi. Itsigakdan olinadigan zaharli modda – anabazin qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi hashoratlarga qarshi kurashda qo'llanadi.

O'zbekistonda sho'radoshlar oilasiga mansub 44 turkumga oid 200 ga yaqin tur o'sadi.

Bu oilaga mansub 8 ta tur Respublika Qizil kitobiga kiritilgan.

Lavlagi avlodi (Beta). Bu avlod vakillari bir yillik va ko'p yillik o't o'simliklardir. Ularning 10 turi ma'lum bo'lib, Kavkazda, Eronda, O'rta Dengiz bo'ylarida yovvoyi xolda o'sadi.

Oddiy lavlagi-(B.rsulgaris). Bu ikki yillik o`simlik bo`lib, birinchi yili urug`dan uzun bandli, yirik qizilroq rangli to`pbarglar va oziq moddalarga boy yo`g`onlashgan"ildimeva" xosil qiladi. Ikkinchi yili sershox, bir oz uzun,uchlari to`pgullar bilan tugovchi poya vujudga keladi. Sharsimon to`pgulda, ikki jinsli 5 ta gulqo`rg`on bargli 1-8 ta gullari bo`ladi. Changisi 5 ta bo`lib, gulqo`rg`on barglarning qarshisida joylashgan, urug`chisi 3 meva bargli, tugunchasi chala ostki bo`lib uyali. Mevasi gulqo`rg`on barglari bilan qo`shilib o`sgan yong`oqchadir. Lavlagining mevasi botanika nuqtai nazaridan qaraganda noto`g`ri bo`lsa ham aholi o`rtasida urug` deb yuritiladi. Ekiladigan lavlagi navlari ko`p bo`lib ular 4 xilga bo`linadi.

1. Qand lavlagi-ildizmevasi cho`zinchoq noksimon yoki cho`ziq bo`ladi tarkibida 22 foizgacha qand bo`ladi.
2. Xashaki lavlagi-ildizmevasi ancha yirik,lekin tarkibida qand oz bo`ladi.
3. Osh lavlagi yoki sabzavot lavlagi.
4. Barg lavlagi yoki mongold,uning qalin sershira bargi bo`lib, u ovqatga ishlatiladi.

Sho`ra avlodi-(Chenopodium). Bu avlod vakillari bir yillik,ikki yillik va ko`p yillik buta o`simliklaridir.Oq sho`ra (Ch.abbum). Bir yillik, sershox, barglari bandli 2 tomonidan unli g`uborlar bilan qoplangan o`simlikdir. Bu eng ko`p tarqalgan begona o`tlardan biri bo`lib, sug`oriladigan ekinlar orasida o`sadi.

Sassiq sho`ra-(Ch.vilvaria). O`ziga xos o`tkir xid chiqaradigan bir yillik begona o`tdir. Barglarning 2 tomoni ko`kimtir, gulqo`rg`oni unsimon g`uborli bo`ladi. Sug`oriladigan ekinlar bilan birga, shuningdek, xovlilarda, yalangliklarda uchraydi. Tereksen (Eurotia), izen (K.prostrata)saksovul (Haloxylon) va x.k shu oila vakillaridir. Shirali sho`ralar sho`r bosgan tuproqda o`sadigan. Ularda suv saqlovchi to`qimalar borligidan bu o`simliklar tuzni juda ko`p singdiradi. Shirali sho`ralar tarkibidagi kul moddasi miqdori jihatida boshqa o`simliklardan ro`yrost ajralib turadi. Ulardagi quruq modda miqdori o`simlik og`irligining 50% ni tashkil qiladi. Masalan; qizil sho`ra (Salicornia herbacea). Ko`pchilik sho`ralarda poyasining tagi yog`ochlanadigan bo`ladi. Ular ba`zan aylanasi 70 sm ga boradigan va bundan ham oshadigan katta - katta butalar holida o`sadigan bo`lganidan o`tin o`rnida ishlatiladi, sahro va yarim sahro rayonlarida iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga egadir.

Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklar.

O'tkirbarg baliko'z

Klimakoptera ostrolistnaya

Climacoptera oxyphylla U.P. Pratov:

Kamyoblik darajasi 1. O'zbekistonning janubiy qismida kichikmaydonda saqlanib qolgan endem o'simlik. Qisqacha tavsifi. Bo'yi 10-15sm, asosidan shohlagan, bir yillik o't. o'simlikning pastki qismi qalin, yuqori qismi esa siyraklashgan, uzun, ko'p hujayrali, chalkash, yarim yotiq tuklar bilan qoplangan. Shohchalari va barglari ketma-ket joylashgan, poyadagi barglarining bandi poyasiga yopishgan. Barglari o'tli, qalami yarim silindrsimon, uchi o'tkir, bargining uchi G'uj tukli. Gullari yakka, ro'vaksimon to'pgulga yig'ilg'an. Guloldi bargi etli, uchi o'tkir, yonbargcha va gul qo'rg'onlardan uzunrog'i. Gulqo'rg'oni 5 bargchali, uzunligi 6 mm, mevalagan paytida yuqori qismi tukli qanotchalar hosil qiladi. Changchisi 5 ta. Tumshuqchasi bigizsimon, gulqo'rg'oni qisqa. Urug'i yotiq joylashgan.

Tarqalishi. Surhondaryo viloyati: O'zbekistonning janubida Sherobod vodiysidagi Maydon qishg'log'i atroflarida tarqalgan.

o'sish sharoiti. Ochiq ola jinsli yerlarda o'sadi.

Soni. Kam uchraydi, yakka-yakka holda o'sadi.

Ko'payishi. Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Ola jinsli yerlarda o'sishi va u o'sgan erlarda chorva mollarining boqilishi uning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Madaniylashtirilishi. Madaniylashtirilmagan.



2-rasm: O'tkirbarg baliko'z

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Ola jinsli yerlarda o'sishi va u o'sgan erlarda chorva mollarining boqilishi uning kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Madaniylashtirilishi. Madaniylashtirilmagan.

Muhofaza choralari. Mahsus muhofaza tadbirlari ishlab chiqilmagan. Chorva mollarini boqishni (ayniqsa o'simlikning urug'i etilgan davrda) cheklash lozim.

Manbalar.[221, 333, 337]


Maligin baliqko'zi.

Klimakoptera Maligina

Climacoptera malyginii (Korovin ex Botsch.) Botsch

Kamyoblik darajasi 2. Mirzacho'lda tarqalgan kamyob endemic tur.

Qisqacha tavsifi. Bir yillik, o't o'simlik, bo'yi 30-35 sm, yoshligida uzun, ingichka, chalkash tukli, keyinchalik tuksizlana boshlaydi. Barglari etli, qalami, uchi to'mtoq. Guloldi barglari poyaning pastida gulyonbargchalardan uzun, yuqorisida ulardan qisqa. Gulyonbargchalari gulqo'rg'onidan qisqa, tuhumsimon. Gulqo'rg'on bo'laklari nashtarsimon, tuksiz, mevasi etilishi bilan yarmidan pastida qanotchalar paydo bo'ladi. Changdonining uzunligi 1,5 mm, yarmigacha bo'lingan, uchidagi bo'rtmasi pufaksimon. Urug'chisi gulqo'rg'onidan uzun. Iyun-sentyabr oylarida gullab, mevasi etiladi.



3-rasm: Maligin baliqko'zi

Tarqalishi. Endem. Sirdaryo vohasida (Mirzacho'lda) tarqalgan (Sirdaryo viloyati.).

O'sish sharoiti. Sho'rhok tuproqlarda o'sadi.

Soni.Siyrak holda o'sadi. Soni aniqlanmagan.

Ko'payishi.Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari.Bu tur tarqalgan joylarda dehqonchilik qilinishi va mol boqilishi tufayli kamayib ketgan.

Madaniylashtirilishi.

Ma'lumotlar yo'q.

Muhofaza choralari.Muhofaza qilinmaydi.

Manbalar.[333, 337

To'mtoq gulyonbargchali

baliqko'z

Klimokaptera tupopritsvetnichkovaya


Climacoptera amblyostegia (Botsch.) Botsch.

Kamyoblik darajasi 2. Qizilqum va Mirzacho'lda tarqalgan kamyob endemik tur.

Qisqacha tavsifi.Bir yillik, o't o'simlik, bo'yi 5-30 sm, asosidan shohlangan, yoshligida tukli, keyinroq tuksizlanadi. Barglari etli, qalami, uchi to'mtoq. Guloldi bargi kichikroq, gulyonbargchalardan uzun. Gulyonbargchalari tuhumsimon, o'rtasidan pastrog'ida qanotchalar bor. Changdon bo'rtmasi pufaksimon. Iyul-sentyabrda gullab, mevasi etiladi.

Tarqalishi.Sirdaryo viloyati: Mirzacho'lda tarqalgan. O'zbekistondan tashqari Qozog'istonda ham tarqalgan.

O'sish sharoiti. Sho'rhok tuproqlarda o'sadi.



4-rasm: To'mtoq gulyonbargchali

Soni. Kichik-kichik jamaolar hosil qilib o'sadi.

Ko'payishi. Urug'i orqali ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Erlarning dehqonchilik uchun o'zlashtirilishi va mol boqilishi tufayli qisqarib ketgan.

Madaniylashtirilishi. Ma'lumotlar yo'q.

Muhofaza choralari. Muhofaza qilinmaydi.

Manbalar[47, 333, 337]

Olabuta eshaksho'ra (*Atriplex L.*) — sho'radoshlarga mansub bir yillik o'tsimon yoki yarim buta o'simliklar turkumi. O'zbekistonda O.ning maydagul O. (*A.mierantha C.A.Mey.*), tatar O.si (*A.tatarika L.*), yelpig'ichsimon O. (*A.fl abellum Bgge.*) turlari uchraydi. Poyasi tik, shoxlanib o'sadi, bo'yi 1 m yoki undan ortiq. Barglari bandli, unsimon, kumushrang g'ubor bilan qoplangan, pastdagilari doirasimon shaklda, yuqoridagilari esa uzunchoq — nashtarsimon. To'pguli boshhoqsimon. Mevasi — tekis yumaloq xaltacha. Urug'i yasmiqsimon, qora, yaltiroq, kattaligi 1 — 1,5 mm. Iyuldan sent.gacha gullaydi va meva tugadi. Bir o'simlik 100 mingga yaqin urug' beradi, to'kilgan urug'lari bahorda yana unib chiqadi. Begona o't sifatida yo'l yoqasida, ekin-zorlar orasida va tashlandiq yerlarda o'sadi.

Kurash choralari: almashlab ekish, kultivatsiya; urug'larni saralab ekish, gerbitsidlardan ekish vaqtida kotoraya, prometrin yoki kotofor qo'llaniladi

Lavlagi (*Beta*) - sho'radoshlar (sho'ragullilar oilasi)ga mansub bir, ikki va ko'p yillik o'simlik 10 turi ma'lum. O'zbekistonda 5 turi uchraydi. Ekma lavlagi ikki yillik o'simlik biripchi yili ildiz va barg chisaradi, ikkinchi yili ildilmevasidan gulpoya rivojlanib urug' hosil bo'ladi. Guli ikki jinsli, mayda hasharot va shamol yordamida chetdan changlanadi, mevasi yengoqcha. Ekma lavlagining qizilcha (*Burak*), xashaki va qand lavlagi xillari bor. Qand lavlagi - eng muhim texnika ekini. Ildizmevasi deyarli to'g'ri konus shaklida, vazni 300-600 g va undan ortiq. Tarkibida 20% gacha saxaroza, 4-5% kletchatka, 1-1,5% azotli moddalar va boshqalar bor. Gektaridan o'rtacha 300-500 s hosil beradi. Qand lavlagidan shakar olish vaqtida melassa va lavlagi turi (jom) hosil bo'ladi, Bular molga beriladi.

Qizilcha (*Burak*) - ovqatga ishlatiladi, tarkibida 82,2% su v, 1,8% azotli moddalar, 14,4% uglevod, 0,7% kletchatka. S, V, RR vitaminlar, organik kislotalar va boshqalar bor. Gektaridan 500 s gacha hosil olinadi.

Xashaki lavlagi - molga beriladigan sersuv oziq 100 kg ildizmevasi tarkibida 12,4, bargida 9,3 oziq birligi, sigirlar sutini ko'paytiradigan, oson hazm bo'luvchi uglevod va pektin moddalar bor.

Uning «pushkinskaya ploskaya» navi eng teznishar hisoblanadi. Lekin bu nav safati va saqlanishi jihatidan «gribovskaya ploskaya», «polyarnaya ploskaya» deb ataladigan tezpishar navlarga teng kelolmaydn. Lavlagining o'rtapishar navlari qatoriga «nesravnennaya» va «bordo» navlari kiradi. «Podzimka» nav esa kuzda ekilib undan kelgusi yili hosil olishga mo'ljallangan.

O'zbekiston sharoitida lavlagi martning oxiri va apryelning boshlarida eqiladi. Bu muddatda ekilgan lavlagidan mo'l hosil olish mumkin. Kechki lavlagi urug'lari ekishdan oldin ivitilib undiriladi, so'ngra sug'orilgan nam tuproqqa ekilishi shart. Uning urug'lari qator oralari 50-60 sm dan bo'lgani holda qo'shqator qilib eqiladi. Qo'shqator orasi 15 sm, har bir satordagi ekin oralig'i 5 sm dan oshmasligi kerak. Urug'lar tuproq nomi kamroq bo'lganda chuqurroq (4-5 sm), nam tuproqli yerlarda 2-3 sm chuqurlikka ko'miladi.

Lavlagini parvarish qilishdagi muhim tadbir yagana qilishdir. Odatda lavlagining bitta urug'idan bir necha o'simlik unib chiqadi. Uning keyinchalik avj olib o'sishini ta'minlash uchun nihollar paydo bo'lgan davrda darhol ortiqcha tunlari olib tashlanadi. Lavlagi to'plarida ikkita barg hosil bo'lganda birinchi marta yagana qilinib, keyinchalik bu ish yana 2-3 marta takrorlanadi. So'nggi yaganalashdan so'ng har 10 sm masofada bittadan o'simlik qoldiriladi. Keyingi yaganalashlarda yolib olingan o'simliklarni ovqatga (ko'kat sho'rva) qo'shib ishlatish ham mumkin. Har galgi yaganalash paytida begona o'tlar ham yolib tashlandi. Uning 400 dan ortiq turi kattalashadi.

Qand lavlagi qimmatli sabzavot o'simligi bo'lib, uni asosan qand ishlab chiqarish uchun eqiladi. Ildizmevasi tarkibida 16-22 prosent qand bo'ladi. Qand inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega. Qand lavlagini qand zavodida qayta ishlash mahalida, hosil bo'ladigan chiqindisi tarkibida qand moddasi bo'ladi. Qandi olingandan qolgan turli va chiqindilari to'yimli oziq sifatida chorva mollariga beriladi. Qand lavlagi va boshqa ildizmevalarning hosili yig'ib terib olingandan keyingi chiqindilari - barglar, ildizmevalarning tubi va uchki qismi yangiligicha, quritilgan va siloslangan holda mollarga beriladi. Qand lavlagining o'zi ham sershira oziq sifatida chorvachilikda foydalaniladi.

5-rasm--qand-lavlagi.



Qand lavlagi to'yimliliği jihatidan boshqa ildizmevalar va tugunak mevalardan yoqori turadi. Qand lavlagi serhosil o'simlik bir gektar yerdan o'rtacha 25-30 tonna kand lavlagi hosili olish mumkin. Ayrim ilg'or xo'jaliklar 50 tonna va undan ham ortiq lavlagi hosili yetishtirmoqdalar. Qand lavlagi va boshqa ildizmevalilar ikki yillik o'simlik bo'lib, urug'idan birinchi yili ildizmeva, keyingi yili esa urug' beradi. Ildizmevali o'simliklarda ildizmevalarning shakli bir xil bo'lishiga qaramay, ularning tuzilishi bir-biriga o'xshaydi. Qand lavlagi va boshqa ildizmevalar uch qismdan: bosh, bo'yin va haqiqiy ildizdan iborat (5 rasm). Bosh qismida barg va poya kurtaklari bor. Shu kurtaklardan gul poya rivojlanadi. Undan pastroqda bo'yin qismi joylashgan bo'lib, unda barg va yon ildizlar bo'lmaydi. Haqiqiy ildizi uning pastki konussimon qismidir. Uning qaramaqarshi tomonida bo'ylama egati bo'lib, ulardan yen ildizlar o'sib chiqadi. Ildizmevaning bosh qismida barglar joylashgan bo'lib, lavlagida barg bandi va barg shapalog'i bo'ladi. Bargning usti sillik yoki burtiklidir. Sabzida esa barglari patsimon qirqilgan bo'ladi Qand lavlagi va osh lavlagida gullar poya bo'ylab barg qo'ltig'ida joylashadi, mevasi yeng'oqqa o'xshash yog'ochlangan qalin qobiqli bo'ladi. Yetilgan mevalar sarg'ayadi. Sabzining to'pguli soyabonga o'xshash bo'ladi.

O'simliklarni o'stirish uchun kerakli sharoitlar. Maktab maydonchasida ko'proq osh lavlagi ustida tajriba o'tkaziladi, boshqa ildizmevalilar esa kolleksiya maydonsida o'stiriladi. Ildizmevalilar sovuqqa chidamli, ikki yillik o'simlikdir. Shuning uchun ular erta bahorda eqiladi. Ularning urug'lari $+4+6^{\circ}$ issiqliqda una boshlaydi, maysalar $-2-3^{\circ}$ sovuqqa chidaydi.

Ildizmevalari tuproq harorati 15-25° bo'lganda yaxshi o'sadi. Sabzi va lavlagi issiqqa chidamlidir. Ildizmevalilar yorug'sevar o'simli'k bo'lib, kunning uzun bo'lishini xoxlaydi. Soyada o'stirilsa yoki qalin ekilsa, ularning xosili keskin kamayadi. Ayniqsa lavlagi va sabzining yosh o'simliklari yorug'likni ko'p talab qiladi. Snuning uchun ildizmevalarni begona o'tlardan saqlash va qalin bo'lsa, yaganalash lozim. Ildizmevali o'simliklar namlikka talabchan bo'ladi. Sabzi va lavlagi o'simliklari qurg'oqchilikka chidamli, lekin unib chiqayotganda tuproqda nam yetarli bo'lishini talab qiladi. Lavlagi va sabzining ildizlari 2 m chuqurlikka va 1,5 m atrofga tarqaladi. Boshqa ildizmevalilarning ham ildizlari yaxshi taraqqiy etadi. Faqat rediskaning ildizi kamroq rivojlanadi. Ildizlari tuproqda rivojlanishi tufayli ular unumdor, yumshoq havo va suvni yaxshi o'tkazadigan tuproqlarni xoxlaydi.

Ildizmevalilar hosilini yig'ish va saqlash. Qand lavlagi ildizmevalari yetilganda, ya'ni uning tarkibida qand moddasi ko'p to'planganda, mashinalar yordamida yig'ib olinadi. Qand lavlagi yetilganda uning barglari och yashil rangga kiradi, qisman sarg'ayadi, ayrim barglari quriydi, qator oralaridagi barglar qo'shilib ketadi. Lavlagi hosilini yig'ish avgust oyining oxiridan boshlanib, oqtyabr oyining oxirigacha davom etadi. Xashaki lavlagini esa avgust va sentyabr oyida kovlab yig'ib olish mumkin.



6-rasm: Ildizmevalilar hosili

Lavlagi kovlab olishdan 6-7 kun ilgari sug'oriladi. Ildizmevalar kovlanadi, ular tuproqdan ajratib olinadi va poyalarini 1 sm qoldirib kesiladi. Mollarga oziq uchun mo'ljallanib qirqilgan, saralangan ildizmevalar ikki tomoni nishab qilib quviladi, usti 2025 sm qalinlikda tuproq bilan ko'miladi. Lavlagi tomlarining kengligi 2- 2,5 m, balandligi 1 -1,3 m bo'lishi kerak. Uzunasiga har 5 m dan tirkish qoldiriladi.

Lavlagi o'ralarda ham saqlanadi. Buning uchun kengligi va chuqurligi 70-80 sm, uzunligi keragicha bo'lgan o'ra kovlanadi. O'raning tubiga taxta yoki poxol to'shaladi, lavlagi qatorlab terib chiqiladi va ustini taxta bilan bekitilib, 50 sm qalinlikda tuproq tashlanadi. Ildizmevalarni oddiy yerto'la yoki maxsus omborlarda ham saqlasa bo'ladi. Bunda lavlagi ustma ust taxlanadi va harorati 0-1°C bo'lgan xonalarda saqlanadi.

Qand lavlagi qazib olish xususiyatlari. Qand lavlagini qazib olish va uni qand zavodlarining qabul punktlariga tashish ekinni yetishtirish texnologik siklining yakunlovchi bosqichidir. Qazishni boshlash va qazish usulini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Qoratuproq zonasida va Janubiy tumanlar sharoitlarida qand



7-rasm: Qand lavlagi


lavlagini qazib olishni sentyabrning ikkinchi yarmi oktyabrning boshlaridan boshlab 20-25 kunda tugatish lozim. Qazish usulini tanlash mavjud texnika vositalariga, daladan qabul punktigacha bo'lgan masofa va aniq kavlab olish sharoitlariga bog'liq.

Qand lavlagining ildizmevasi va bargini kavlash mashinalaridan belgilangan joygacha tashib keltirish xarakteriga qarab ikki xil: bevosita va bilvosita (potok)qazib olish usuli mavjud.

Yuqorigi markaziy tortqi chap ko'tarish richagida skoba bilan mahkamlanadi. Qand lavlagini kavlab olishdan oldin (10-15 kun avval) qator oralar yumshatib chiqiladi. U lavlagini ish sifatini pasaitirmay yuqori tezliklarda kombayn yordamida kavlab yig'ib olish imkonini beradi, odatda kombaynlarning ishlashini qiyinlashtiruvchi begona o'tlarni

yo'qotadi va hosilning oshishi hamda lavlagi ildizmevasida shakar moddasining oshishi uchun qulay sharoit vujudga keltiradi. Kavlashdan oldin 23 ta iskana yoki strelkasimon panjalar bilan jihozlangan chopiq kultivatorlari bilan tuproq quruq bo'lganda 8 sm va me'yorida yoki himoya zonasi 20-15 sm bo'lgan yumshoq tuproqda 8-12 sm chuqurlida yumshatiladi. Tuproq juda qurigan qattiq va palak o'sib ketganda Silos, qilish tugagach, shibbalangan massa poxod va tuproq qatlami bilan yopiladi. Ildizmeva yig'ish mashinasi uchun bitta paykalning o'zida salak yig'ish mashinasi bir o'tishdan ortiq yurmaydi, chunki qatorlar yaxshi ko'rinmasliti oqibatida ildizmeva yig'ish mashinasining g'ildiraklari ildizmevalarni shikastlantirishi mumkin. Asosiy paykaldagi qand lavlagi ham QS-66 yoki RKS-6 ildizmeva yig'ish mashinasi yordamida kavlab olinadi. Qand lavlagi yig'ish mashinalarini shunday rostlash kerakki, bunda kavlanmay qolgan lavlagi ysrofi 1% dan, tuproq yuzasida qolib ketgan lavlagi 25% dan oshmasin. Lavlagi ko'k massasining iflosligi ko'pi bilan 3%, palaqiagi tuproq massasi esa ko'pi bilan 1 % bo'lishi kerak. 102.0% shikastlangan lavlagilar bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Ismaloq (Spinacia) — sho'radoshlar (sho'ragullilar oilasi)ga mansub bir yoki ikki yillik o'simliklar turku-mi, sabzavot ekini. I. ikki jinsli (aksariyat, ikki uyli), sovuqqa chidamli, tez yetiladigan o'simlik. AQSH, Kanada, Yevrosiyoda, jumladan, O'zbekistonda poliz I. (*S. oleracea* L.) turi sabzavot sifatida o'stiriladi. Dalaga erta bahorda ekiladi. Urug'i 3—4 kunda ko'karib chiqadi. Unib chiqqanidan keyin 30—45 kunda barglari iste'molga tayyor bo'ladi (ovqatga ishlatiladi). Hosildorligi 150—300 s/ga. Cho'chqatikan (*S. turkestanica* Iljin) turi ekinzorlarda va tog' yon bag'irlaridagi o'tloqlarda begona o't tarzida uchraydi. Bo'yi 60 sm, barglari patsimon qirqilgan, poyaning pastki qismidagilari bandli, qolganlari bandsiz, ketma-ket joylashgan. Mevasi — tikanli to'pme-va. I. unib chiqqanidan keyin 30—40 kunda maysasi, 90—100 kunda urug'i yetiladi. 8—9° sovuqqa chidamli. Tarkibida karotin, vitamin V, V2, S, organik kislotalar bo'lib, xalq tabobatida siydik haydovchi dori sifatida hamda kamqonlik, raxit kasalliklariga qo'llaniladi. Bargidan gidrolizlab olingan maxsus oqsil modda me-ditsinada me'da osti bezi faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi, barglari bahorda, vitaminlarga boy bo'lib, undan somsa va b. taomlar tayyorlanadi.



8-rasm: Ismaloq — sho‘ragullilar oilasiga mansub.

Saksovul (Haloxylon) — sho‘radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi. Bo‘yi 1,5—12 m, tanasining diametri 1 m gacha boradi. Guli mayda, ikki jinsli, qaramaqarshi, tangachasimon, guloldi qo‘ltig‘ida bittadan o‘rnashgan. Barglari uchli, rivojlanmagan, tangachasimon, gul xreil qiluvchi novdachalari qari shoxlardan o‘tib chiqadi. Saksovulning yashil novdalari organik modsa to‘plashga xizmat qiladi. Iillic yosh novdalarining ko‘p qismi kuzda, ayniqsa, sovuq tushishi bilan to‘kilib ketadi, ozroq qismi esa yog‘ochga aylanib saqlanib qoladi. Alr.dan gullay boshlaydi, okt.da urug‘laydi. Osiyo (O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Xitoy, Mongoliya)da 10 turi uchraydi. O‘zbekistonning Qizilqum cho‘llarida o‘rmonlarni hosil qiluvchi asosiy turlar — oq va qora S.dir. Kora S. (N. aphyllum) — bargsiz buta yoki daraxt, bal. 4—9 (12)m gacha. Asosan, Osiyoning cho‘l va chala cho‘llarida, sho‘rxok yerlarda, sho‘rlangan qumlarda, taqirlarda ko‘p tarqalgan. Urug‘idan ko‘payadi. Yo‘llarda ixotazorlar barpo etishda foydalaniladi. Qora Saksovul. katta daraxtzorlar hosil qiladi, oq Sdan tana va shoxshabbasining qoramtir bo‘lishi, bargining tuzilishi bilan ajralib turadi. Oq Saksovul. (H.persicum) — yirik buta. Balandligi 2,5—6 m. Ildizi 10—11 m chuqurlikka boradi. Qozog‘iston, O‘rta Osiyo, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Saudiya Arabistoni, G‘arbiy Xitoyning cho‘l va sahrolarida o‘sadi. Oq S. qumliklarni mustahkamlash uchun ekiladi. Zaysan Si (H.ammodendron) turi Qoraqalpog‘istonning ayrim joylari (Ustyurt)da uchraydi.



9-rasm: Saksovul — sho‘radoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi.

Saksovulning xalq xo‘jaligida ahamiyati katta. Undan, asosan, o‘tin (yoqilg‘i), qo‘ylar va tuyalar uchun to‘yimli ozuqa, qumlarni mustahkamlovchi, shamolni to‘sovchi vosita sifatida foydalaniladi. S o‘rmonlari tuproqni eroziyadan saqlashda muhim o‘rinda turadi. S. 50—60 y. yashaydi. Asosan, urug‘idan ko‘payadi va 5—7yili normal urug‘lay boshlaydi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda S o‘rmonlari 22 mln. ga atrofida. O‘zbekistonda S. o‘rmonlari 1229 ming ga, shundan oq S. 976 ming ga, qora S. 253 ming ga ni egallaydi.

O‘zbekistonda cho‘l va yaylovlarga ekish uchun 1991 y.da chiqarilgan Nortuya navi r-nlashtirilgan. So‘nggi yillarda S.ni ko‘paytirish maqsadida bir qator o‘rmon xo‘jaliklari tashkil etilib, sun’iy saksovulzorlar barpo qilinmoqda.

Abdushukur Xonazarov



10-rasm: Saksovul.

Orol dengizining 200 ming gektar qurigan o`rnida saksovulzor va cherkezzorlar paydo bo`ldi

Qoraqalpog`istondagi ekologik vaziyatni sog`lomlashtirish, mintaqada atrof-muxit muxofazasini kuchaytirish maqsadida BMT, Jaxon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Orol dengizining suvi qurib qolgan 200 ming gektardan ziyod xududida saksovul, cherkez va qandim kabi cho`l o`simliklari ekilib, ishonchli ximoya zonasi yaratildi. Bu, o`z navbatida, dengiz tubidagi tuzli chang to`zoni atmosferaga ko`tarilishining oldini oladi. Orolni qutqarish xalqaro jamg`armasi tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik loyixalar xisobidan akvatoriyasi 120 ming gektar bo`lgan suv xavzalari yaratildi. Janubiy Qoraqalpog`iston to`qayzorlari qisqarishining oldini olish, mintaqada ekologik xolatni barqarorlashtirish, biologik xilma-xillikni asrash maqsadida BMT Taraqqiyot dasturi va Global Ekologik jamg`armasining «Qoraqalpog`istondagi Amudaryo soxilida to`qayzorlarni saqlab qolish va muxofaza etiladigan xududlar tizimlarini mustaxkamlash» loyixasiga ko`ra, «Baday-to`qay» davlat qo`riqxonasi xududida «Quyri Amudaryo davlat biosfera rezervati»

tashkil etildi. Natijada qo`riqxonada xududi 6 ming 462 gektardan 11 ming 568 gektarga kengaytirildi.



11-rasm: Quyi Amudaryo bo'yida saksovullar ko'paytirish.

Sho'radoshlar oilasi qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.

Sho'radoshlarning xo'jalikdagi ahamiyati. Bu oila vakillarining xususiyatlaridan biri ularning tarkibida natriy xlorid, kaliy karbonat, kaliy sulfat va natriy sulfat tuzlari ko'p bo'lishidir. Yana bu o'simliklarda saponinlar, ozgina efir moyi, anabazin va salsalin alkaloidlari, urug'larida moylar, yer ustki qismida organik kislotalar va fermentlar bo'ladi. Bularning iqtisodiy jihatdan eng ahamiyatli bo'lganlaridan biri lavlagidir. Lavlagi sabzavot o'simligi sifatida eramizdan 4000 yil burun ekila boshlagani ma'lum. Xozirgi kunda lavlagi qand sanoatining asosiy xom ashyosidir, shuningdek ovqatga ishlatiladi, mollarga yediriladi. Saksavullardan yoqilg'i, yosh shoxlardan yem-xashak sifatida foydalaniladi. Sassiqlik sho'ra tarkibida bo'yoq moddalari bor.

XULOSA:

Bu oila vakillarining xususiyatlaridan biri ularning tarkibida natriy xlorid, kaliy karbonat, kaliy sulfat va natriy sulfat tuzlari ko'p bo'lishidir. Yana bu o'simliklarda saponinlar, ozgina efir moyi, anabazin va salsalin alkaloidlari, urug'larida moylar, yer ustki qismida organik kislotalar va fermentlar bo'ladi. Bularning iqtisodiy jihatdan eng ahamiyatli bo'lganlaridan biri lavlagidir. Lavlagi sabzavot o'simligi sifatida eramizdan 4000 yil burun ekila boshlagani ma'lum. Xozirgi kunda lavlagi qand sanoatining asosiy xom ashyosidir, shuningdek ovqatga ishlatiladi, mollarga yediriladi. Saksavullardan yoqilg'i, yosh shoxlardan yem-xashak sifatida foydalaniladi. Sassiqlik sho'ra tarkibida bo'yoq moddalari bor.

Bu o'simliklar ko'pincha etdor sersuv bo'ladi. Barglari oddiy, yonbargsiz, ketma-ket yoki qarama-qarshi o'rnashgan. Bargi juda kichrayib ketgan yoki butunlay yo'qolib ketgan bo'lishi mumkin. Gullar mayda, yashil yoki rangsiz, to'g'ri yoki qiyshiq, ikki jinsli, bazan ayrim jinsli, boshqosimon yoki shingil simon to'kilga o'rnashgan. Tugunchasi bir uyli va bir urug' kurtakli. Mevasi asosan yong'oqcha.

Sho'radoshlarga mansub ismaloq turkumining O'zbekistonda ikki turi o'sadi. Ulardan biri rezavor ismaloq bo'lib u zirovor o'simliklar qatorida ekiladi, poya va barglari ovqatga ishlatiladi. Ikkinchisi Turkiston ismaloqi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.M.Mustafaev. Botanika. "O'zbekiston" 2002 y.
2. V.A.Burgin.F.X.Jongurazov Saidov J.K.va boshqalar.Botanika va o'simliklar fiziologiyasi.T,«O'qituvchi» 1972 y

3. I.Xamdamov.,I.Shukrullayev.,YE.Tarasova. va boshqalar. Botanika asoslari.T., «Mehnat», 1990.
4. Xolida Mirfayoz qizi Maxkamova. Botanika.T. «O`qituvchi», 1995 y.
5. Ikramov M. I, Marmuradov X.N, Yo`ldashev A.S. Botanika, T. "O`zbekiston" 2002 y.
6. Xudayqulov S.M, Nazarenko L.I. o`simliklar sistematikasidan amaliy mashqulot «Toshkent» 1984 y.
7. Jukovskiy T.M. Botanika. «Moskva» 1982 Y. 667 bet.
8. Pratov O.P. O`zbekiston yuksak o`simliklar, oilari, zamonaviy tizimi va o`zbekcha nomlari. «Toshkent» 1995 y. 396 bet.
9. Taxtabjeam A.L. Sistematika magnioletov. 1987 Y. 439 bet.
10. O`ktampratov O, Jumaev K. Yuksak o`simliklar sistematikasi. «Toshkent» 2003 y. 144 bet.

www.google.ru.

www.kitob.uz.

www.ziyonet.uz.

MUNDARIJA:

Kirish.	3-4
Sho'radoshlar oilasi haqida umumiy ma'lumot.	
S.M. Mustafaev: 385, 386.	4-6
Lavlagi avlodi (Beta).	6-7
<u>Sho'ra avlodi-(Chenopodium).</u>	7
Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklar.U.P. Prator: 221, 333, 337.	8
O'tkirbarg baliqo'z. Klimakoptera ostrolistnaya.	8-9
Maligin baliqko'zi. Klimakoptera Maligina.	10-11
To'mtoq gulyonbargchali baliqko'z.	11-13
Olabuta eshaksho'ra (Atriplex L.).	13
Lavlagi (Beta).	13-19
Ismaloq (Spinacia)	19-20
Saksovul (Haloxylon)	20-22
Orol dengizining 200 ming gektar qurigan o'rnida saksovulzor va	
cherkezzorlar paydo bo'ldi.	23
Sho'radoshlar oilasi qishloq xo'jaligidagi ahamiyati. U.P. Prator: 337.	24
Xulosa.	25
Foydalanilgan adabiyotlar.	26